

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Ashurov	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar	106
T.A.Julboyev	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'lidan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
C.Ф.Джафарзода	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
A.M.Maxmudov	
Yosh futbolchilarning umumiylari va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish	124
I.U.Nurmetova	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish	129
U.R.Radjapov	
Umumiy o'rta ta'limga muktabalaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatlari o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati	136
G.K.Yakubova, M.Mashrapova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatları tahlili	141
B.A.Rahimov	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi	148
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'limga o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari	154
F.I.Sharipova	
The development of reading literacy among future nurses	158
L.X.Bektursinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
K.X.Абдувалиева	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии	169
R.M.Ubaydullayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi	173
M.M.Yuldashev	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari.....	180
M.A.Suyunova	
Maktabgacha ta'limga tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari	190

IQTISODIYOT

O.Sh.Valiev	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan	194

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	199
S.U.Yuldashev	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari	203
G.N.Navro'zova	
Shoh Naqshbandni tafsiflovchi yangi manbaa	207
A.N.Sanaqulov	
Ta'limga tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari	211



УО'К: 297.453.6:929

SHOH NAQSHBANDNI TAVSIFLOVCHI YANGI MANBAA**НОВЫЙ ИСТОЧНИК ОПИСАНИЯ ШАХ НАҚШБАНДА****NEW SOURCE OF DESCRIPTION OF SHAH NAQSHBAND****Navro'zova Gulchehra Nigmatovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori

Annotation

Maqolada Naqshbandiya ta'lilotining asoschisi Bahouddin Naqshband haqida hozirgacha imiy jamoatchilikga ma'lum bo'ligan "Ruboyoti Xoja Naqshband" asarida keltirilgan ma'lumotlar falsafiy tahlil etilgan.

Аннотация

В статье философски анализируется информация об основателе учения Накшбандия Бахауддине Накшбанде, изложенная в работе "Рубайяти Ходжа Накшбанд", которая до сих пор не была известна широкой публике.

Abstract

The article philosophically analyzes the information about the founder of the Naqshbandi doctrine Bahauddin Naqshband, set out in the work "Rubayati Khoja Naqshband", which has not been known to the general public until now.

Kalit so'zlar: Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya, ta'limat, tariqat, bandalik, xizmat, betakror, baraka.**Ключевые слова:** Бахауддин Накшбанд, Накшбандия, учение, тарикат, бандалик, служение, уникальное, благословение.**Key words:** Bahauddin Naqshband, Naqshbandiya, teaching, tariqa, bandalik, service, unique, blessing.**KIRISH**

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun yoshlarni ma'nан yetuk qilib tarbiyalash dolzarb masaladir. Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirishda tariximizdagi buyuk insonlar hayot yo'li va ma'naviy merosi bebafo xazinadir. Ana shunday ulug' insonlardan biri jahonshumul Naqshbandiya tariqati va ta'lilotini asoslagan Bahouddin Naqshbanddir. U kishi haqida "Ruboyoti Xoja Naqshband" asarida yangi ma'lumotlar borligini aniqladik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bahouddin Naqshbandni tavsif etgan asosiy manbalar "Manoqib"[22], "Maqomot" [4], shogirdlari Muhammad Porso[21:93-156] va Ya'qubi Charxiy[24] yozgan risolalardir. Abdurahmon Jomiy[2,3:26-27] va Alisher Navoiylar[5:261-265,6:82-85] ham nazmiy, ham nasriy asarlarida Bahouddin Naqshbandni go'zal ravishda tavsiflaganlar. Bahouddin Naqshbandga doir manbalarni to'plab, u kishiga berilgan tafsiflarni jamlab, sharhlab nashr etdik[9,10]. Bahouddin Naqshbandning ruboysiylari jamlangan[8], 1997-yilda nashr etilgan "Ruboyoti Xoja Naqshband" [1] asarida biz SHoh Naqshbandga berilgan yangicha tafsiflarni topib, ularni falsafiy tahlil etdik. Manbada Bahoudin Naqshbandning 137 ruboysiini Muhammad Sodiq Qusuriy jamlab, urdu tilida sharh etgan. Biz manbadagi tafsiflarni tushunish, anglash, sharhash va tushuntirishda germenevtik uslubdan foydalandik.

MUHOKAMA

Muhammad Sodiq Qusuriy tomonidan jamlab sharhlangan "Ruboyoti Xoja Naqshband" asarining "Muqaddima"sida Naqshbandiya ta'lilotining asoschisi Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318-1389) haqida "Hazrat Shoh Naqshband (r.a.)" nomi bilan maxsus band kiritilgan. "Muqaddima" da muallif Bahouddin Naqshbandni sheriyat mulkining sultonii Alisher Navoiy kabi SHoh Naqshband deb ulug'lagan[16]. "Muqaddima"da Bahouddin Naqshband haqida quyidagi

ma'lumotlar berilgan: "Hazrat Shoh Naqshband o'z davrining peshvosi, dunyo shayxi bo'lgan (728 hijriy yilda tug'ilib, hijriy 791-yilda vafot etgan). Hijriy VIII asrning so'fiy tariqatida bo'lgan. U so'fiy tariqatining asoschisi, zamonasining peshvosi, ilmli shayxi edi. Betakror shaxs edi. Uning fazlu marhamati bilan butun dunyo baraka topardi" [1:12]. Darhaqiqat, Bahouddin Naqshband Buxoroyi sharifda mavjud bo'lgan Xojagon tariqatida edi. U 1370 yil uestozi Hazrat Amir Kulol vafotidan keyin yangi Naqshbandiya tariqati va ta'lilotiga asos soldi. [7,11-15]. Manbada uni ilmli shayx deb, to'g'ri ta'kidlangan [17,23]. Bu haqida uning shogirdi Ya'qubi Charxiyning "Risolai unsiya" [24] va "Rashahot" [23] asarida ma'lumotlar bor. Manbadagi "Uning fazlu marhamati bilan butun dunyo baraka topardi" degan g'oya Bahouddin tomonidan asoslangan Naqshbandiya ta'lilotining halol mehnatga va luqmaga asoslanganidan dalolat beradi.

"Muqaddima"da "Hazrat SHoh Valiy qaysi hayot manbasidan zilol suv ichgan edilar?", degan savol qo'yilgan va quyidagi javoblar keltirilgan: "Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning sahabalaridan keyin tarixga muqaddas ummatning ba'zi nomlari kirgan. Ular hozirgi oqayotgan daryoning oqimini o'zgartirdi va tarixni uning izidan ergashtirdi. Ulug' yo'boshchimiz Hazrati Sayyid Muhammad Bahouddin Shoh Naqshband ham shunday insonlardan bo'lgan. Bunga Qasri Orifon devorlari, u yerdagи daraxtlar, butalar Buxoro va Samarcand viloyatining chegaradosh viloyatlari ko'rganiga guvohdir" [17,23]. Ulug' alloma, buyuk tadqiqotchi va Rasululloh (s.a.v.)ning mahbubi Mavlono Abdurahmon Jomiy hazratlari bizni bu haqiqatga g'oyat ta'sirchan tarzda tortadi.

Asarning "Muqaddima"sida Bahouddin Naqshbandning banda sifatida Olloh oldidagi vazifalari haqida bayon etilgan. "Hazratning vazifasi" bandida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Avliyolar ummatining o'ziga xos jihat shundaki, ular Muhammad (s.a.v.) ta'lilotlarini amalda qo'llaydilar. Ular sevgi tarafdoरlaridir, lekin o'z sevgilariga da'vat qilmaydilar, ular pokiza, xushbo'y va halolikka da'vat qiladilar. Cevgan odam doimo o'z mahbubini istaklarini ado etishga intiladi" [1:12]. Bahouddin Naqshbandga ham bu fazilatlar xos edi. SHuning uchun ham xalq u kishini e'zozlab, Bahouddin, SHoh Naqshband, Xojai Buzurg, Balogardon va Namaki mashoyix nomlari bilan e'tirof etgan.

Qur'oni Karimda bu haqida shunday ta'rif berilgan: "Ayting: "Sizlar Allohni sevasizlar va Unga itoat qilasizlar, U ham sizni sevadi" (Oli Imron: 31). Demak, mahbubning muhabbatni insonni Yaratganning mahbubi qiladi. Shunga o'xhash narsa sodir bo'lmoxda. Alloh Taolo aytadi: "Qaysidir bandani yaxshi ko'rsam, men uning qulog'iga aylanaman, u orqali tinglaydi, Men uning nigohiga aylanaman, ular yordamida ko'radi, qo'llariga aylanaman, ular yordamida ushlaydi, oyoqlar ato etaman ular yordamida harakatlanadi. Agar u mendan so'rasha, men berishim kerak. Agar u mendan boshpana so'rasha, men unga albatta boshpana beraman". (Buxoriy rivoyati)

Asarda Bahouddin Naqshband yozgan 137 ruboiy haqida ma'lumot berilgan va ularga urdu tilida Muhammad Sodiq Qusuriy tomonidan sharhlar yozilgan. Bu asarni "Muqaddima"sin yozgan Janob professor Sayyid Muhammad Zokir Husayyin Shoh Chishti Sialvi Mad Zilla (Ravalpindi) bu ruboilarni uqib "Sayyid Xoja Naqshband va Hofiz Sheroyi" degan ma'lumotlarni yozgan. Unda quyidagi tavsiflarni bergen: "Hazrat Hofiz Sheroyi nafaqat fikrlari islam olami so'fiylari tomonidan sevilgan Eronning buyuk shoiri, balki o'zi ham ulug' avliyodir. Uning hikmatli so'zlarini jamlangan. U shoiri edi. Uning she'rlari tinglovchilarga iliqlik baxsh etib, qalblarni to'lqnintirib yuborardi. Agar Sayyid Muhammad Zokir Husayyin Shoh sohib kasal bo'lmaganda So'fiy Oliy maqomning buyuk she'riyati haqida ko'p yozgan bo'lardi. Sevimli So'fiylarimizning aksariyati shoir edi: Attor, Rumiy, Jomiy, Hofiz, Sanoiy, Sa'diy, Iqbol va boshqalar. Ular yaratgan asarlar she'riyatning durdonalaridir. Islam olami har bir davrda shunday buyuk so'fiy shoirlar bilan to'la bo'lgan. Va shunday davom yetadi" [1:12].

"Muqaaddima"ni yozgan muallif "So'fiy - haqiqiy shoirdir", degan g'oyani ilgari suradi. "Biz chinakam she'riyat chin sevgining to'lib-toshgan kosalari borligiga ishonamiz. Haqiqiy sevgi So'fiyning qalbida bo'ladi. Ruh dunyosi juda keng, ulkan va chuqurdir". Bahouddin Naqshband ham bu asarda ham so'fiy, ham haqiqiy shoir sifatida tavsiflangan.

Bahouddin Naqshband o'z ruboilari bilan insoniyat qalbiga kira oldi. "Sayyid SHoh Naqshband o'zining muqaddas burchini bandalarining qalbiga shunday singdirdiki, mo'minlarning qalbi Allohning maskaniga aylandi. Mo'minning qalbi Allohning maskanidir" [1:16].

Pokiston va Hindistonning qay yerida Naqshbandiya darg'alari bo'lsa, u yerdan Sayyid Siddiqiy Akbarning isi keladi. Sayyid Mujaddid Alf Soniy Quddus Sara Al-Nuroniyining mehrli so'zlarini topiladi. Hayot, o'lim, ularning kelishi va ketishi, ularning o'qishi va o'rgatishi Muhammad Mustafo (s.a.v.)ga bo'lgan muhabbatdir.

FALSAFA

Avliyolar Sayyid Mustafo (s.a.v.)ning tashqi va ichki vakillaridir. Ularning hayoti, o'limi, kelishi va ketishi, o'qishi va o'rgatishi barchasi Mustafo (alayhissalom)ga bo'lgan muhabbatidir. "Sayyid Sodiq Akbardan tortib, zamondosh bo'lgan buyuklarning so'zlarini jamlashga harakat qildik. Ular qalblarning vakillari va qalblarning tarjimonlaridir. Ularning so'zları nafaqat yaxshi tasavvur, balki biz yaxshi tasavvur deb biladigan fikr va g'oyalarning o'Ichovlari haqiqatdir. Bizning qalbimiz yetuk bo'lganda, ularning fikrlari bizga haqiqat sifatida yashiringan holda keladi" [1:19].

Bahouddin Naqshband sheriyatining darajalari haqida asarda shunday ta'rif beriladi: "Hazrat majoziy qalbni juda tez haqiqat tomon buradi. Yaqin masofaning vakili bo'lgan ishq majoz ularning ko'z nuridan abadiy hayotni qabul qilib, haqiqat qiyofasini oladi. Bular doim bizni notejis vodiylardan olib chiqib, Tavhid gullari ochilgan joyga, haqiqatning yashil vodiylariga, Qur'on nuri porlagan joyga olib boradi" [1:19].

Bahouddin Naqshbandning boshqa valiylar kabi Insoniyatga haqiqiy xizmati - bu bandalarga Yaratganning mukofotidir. "Ular o'zlarini och bo'lsalarda, ochlarni to'yadiradilar, o'zlarini tashna bo'lsalarda, tashnalarga shirin, muzdek suv olib keladilar. Ust-boshlarini yechib, kambag'allarga kiydiradilar. Yig'lab duo qiladilarki, toki odamlar kula olsin. Ular insonlarni ohiratda ma'rifatga chorlaydilar. Ya'ni, ularning mehr doirasi faqat foniy hayot va qabr bilan chegaralanib qolmaydi, ular insonlar bag'riga o'zga hayot ne'matlarini, oxirat quvonchlarini ham soladilar" [1:19].

"Rasulollox (s.a.v.) izidan borgan kimsalarning mavqeい qanday? Bu odamlar oddiy odamlarmi? Yo'q!" deb asar mualliflari Bahouddin Naqshband va boshqa valiylarga yuksak baho beradilar.

NATIJALAR

Naqshbandiya ta'lomitiga ko'ra, "Valiy qalbi ma'dani anvori jaloldir. Valiy yuzidagi nur va latofat valiy qalbidagi ana shu anvordandir. Ul nuring aksi valiyning siyosidan zohir bo'lur va har kim uning yuziga nazar aylasa, ul kishi Haqq taoloni yod etar va uning zikriga mashg'ul o'lur" [22:76].

Muhammad Porso "Risolai qudsiya" asarida Bahouddin Naqshband haqida quyidagi tavsifni yozgan edi:

Gasht be kibru, riyoyu kina,
Nuri qudsiro ruxash oina.
On liqoi o' javobi har savol,
Mushkil az o' hal shavad be qilu qol[21:95] .
Mazmuni:
Kibr, riyox, kinasiz bo'ldi,
Yuzi qudsiy nur oinasidir.
Uning yuzi barcha savollarga javob,
So'zsiz undan mushkul hal bo'ladi.

Naqshbandiya ta'lomitda valiylarga munosib xususiyatlardan biri sifatida ularning suhbatiga musharraf shaxsning o'zidagi bashariy istaklardan voz kechib, malakiy darajali sifatlarga ega bo'lishi ham insho etilgan. Valiy suhbatiga musharraf shaxs o'zidagi gil - tuproq va suvdan tuzilgan tana istaklardan voz kechadi va yuksaladi, degan fikrni Hazrati Azizon ta'kid etganlar.

Hazrat Bahouddin Naqshband valiylikning uchta xususiyati bor deb, quyidagi fikrni bayon qiladi:

Se nishon buvad valiro, ki naxust on bama'ni,
Ki chu ro'i o' bubini, dili tu bar o' garoyad.
Duvvum on, ki dar majolis, chun suxan kunat zi ma'ni,
Hamaro zi hastii xud b-hadis meraboyad.
Sevum, on buvat b-ma'ni vali axasi olam,
Ki zi hech uzvi o'ro harakoti bad hayoyad[4:59].
Mazmuni:
Valiylikning uch belgisi bor, birinchisi u bama'nidir,
Uning yuzini ko'rgan zahoting dilingni rom etadi,
Ikkinchisi, agar majlisda ma'ni haqida so'zlasa,

Butun borlig'i ila hammani o'ziga maftun etadi.
Uchinchisi, valiy ma'no jihatidan olamdag'i xos kishidir,
Uning biror uzvidan ham yomonlik kelmaydi.

Yuqoridagi she'rda keltirilgan valiylarg'a xos sifatlar Bahouuddin Naqshbandda mavjud edi. Bahouuddin Naqshbandning bu she'riy parchasi "Ruboiyoti Xoja Naqshband" [1:183] asarida ham keltirilgan. Bu manbada Bahouuddin Naqshbandni betakror shaxs deb tug'ri ulug'lagannlar. Darhaqiqat SHoh Naqshband juda kamtarin[18] hamisha shukronalikda[19] va Olloh rizoligi[20] yo'lida mukammal harakat qiladigan ulug' inson bo'lgan.

XULOSA

Yuqoridagi manbada keltirilgan fikrlarni tahlili asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- 1."Ruboiyoti Xoja Naqshband" asarida Bahouuddin Naqshband Alisher Navoiy kabi SHoh Naqshband sifati bilan ulug'lanib tavsiflangan.
- 2.Manbada Bahouuddin Naqshband ilmli, betakror komil inson ekanligi va u yaratgan tariqat, ta'limot hozirgacha baraka manbai ekanligi ta'kidlangan.
3. Ollohni bandasi sifatilda Bahouuddin Naqshband o'z vazifasini halol ado etish uchun insoniyat qalbiga ruboilayilar bilan ta'sir etib, ularni haqiqat tomon yetaklagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. رباعیات خواجه نقشبند مرتب و شارح محمد قصوری اردبازار لاھور الدینیہ پیلیکیشنز ۱۹۹۸ ۱۸۴ صحفه
2. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. Toshkent: Porseva, 1915 – 616 s.
3. Abdurahmon Jomiy. Tuhfatul-L-Ahror.- Lakhnav:Nuvil Kishur, 1908. - 112 s.
4. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouuddin Naqshband / Forsiydan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 335 b.
5. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. Toshkent: "Fan", 2001. 520 b.
6. Alisher Navoiy. Hayratul abror/Xamsa to'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6 jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011- 805 b.
7. Bahouuddin Naqshband. Avrod (to'ldirilgan ikkinchi nashr). Maqola, izoh va sharhlar muallifi, tarjimon G.N Navro'zova. T.: "Sano standart" nashriyoti, 2019. 112 b.
8. Bahouuddin Naqshband. Ruboilyar. Buxoro: "Durdon" nashriyoti, 2023 – 84 b.
9. Bahouuddin Naqshband. (Manbalar tahlili). To'plab nashrga tayyorlovchi, maqola, izoh va sharhlar muallifi. G. N. Navro'zova. T.: "Sano standart" nashriyoti, 2019. 256 b.
10. Bahouuddin Naqshband. Hikmatli so'zlar. Bahouuddin Nakshband. Words of wisdom. Hikmatli so'zlarni to'plovchi va maqolalar muallifi. G. N. Navro'zova, Hikmatli so'zlarni ingliz tiliga tarjima etuvchi Z. Rasulov. "Sadiddin Salim Buxoriy". "Durdon" nashriyoti. 2020. 52 b.
11. Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'lomi va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 233 b.
12. Navro'zova G. N Naqshbandiya – kamolot yo'lli. – Toshkent: Fan, 2007. – 189 b.
13. Navro'zova G. Bahouuddin Naqshband. (Risola). T.: "ABU MATBUOT-KONSALT" nashriyoti, 2011. 24 b.
14. Navro'zova G.N. Xoja Bahouuddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
15. Navruzova G.N. Bahauuddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. 5-8-b.
16. Navro'zova G.N. SHoh Naqshband Alisher Navoiy tavsifida. Islom tafakkuri (Maxsus son), 2021. 3-9 bet.
17. Navro'zova G. Bahouuddin Naqshbandning "Vuqufi zamoniyl tamoyill". Falsaf va xuquq. Ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy-huquqiy jurnal. 2022. №2 32-34-b.
18. Navro'zova G.N. Kamtarinlik ila kamolga yetgan valiy. //Ilm sarchashmalari. 2023. №8. 48-50-betlar.
19. Navro'zova G. SHukronalik – inson kamolotining asosi. //Imom Buxoriy saboqlari. 2023. №3. 121-123-betlar.
20. Navro'zova G.N. Naqshbandiya ta'lomitida rizo tushunchasi. //Islom tafakkuri. 2022. 2-son. 39-46-betlar.
21. Risolahoi piron va payravoni tariqati Naqshbandiya. Dushanbe: 2017. 456 b.
22. Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriy.(1410) Anis at-tolibin va uddat as-solikin. Buxoro muzeyi 27772/11 qo'lyozma 168 v.
23. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot («Obihayot tomchilar»): tarixiy-ma'rifiy asar / Tabdil qiluvchilar, nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq. Mas'ul muharrir: B.Umrzoq (O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti). – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 b.
24. Ya'qub Charxiy. Risolai unsiya. (Do'stona suhbat). Tarjimon va sharhlar muallifi. S. Rahmonov. Samarcand: "Samarqand davlat chet tillar universiteti" nashriyoti, 2022. 78 b.